

AHOLINING MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI OQILONA BOSHQARISHDAGI USTUVOR MASALALAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Yarmetova Nargiza Shiximbayevna

Urganch RANCH texnologiya universiteti magistri

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarishning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri Xorazm viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari moliyaviy savodxonlik darajasining oshishi uy xo'jaliklari daromadlarini samarali boshqarish, soliq intizomini kuchaytirish va hududiy byudjet barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, moliyaviy ta'lim dasturlarini rivojlantirish, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali hududiy iqtisodiy faollikni oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy savodxonlik, byudjet-soliq siyosati, fiskal barqarorlik, hududiy rivojlanish, uy xo'jaliklari daromadi, soliq madaniyati, raqamli moliya, bandlik, Xorazm viloyati.

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichida aholi farovonligini ta'minlash masalasi nafaqat daromadlar hajmini oshirish, balki ularni samarali boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish bilan ham bevosita bog'liqdir. Moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan sharoitda uy xo'jaliklari mablag'laridan oqilona foydalanish imkoniyatlari cheklanadi, jamg'arma madaniyati sust rivojlanadi va kredit yuklamasi ortadi. Natijada aholi moliyaviy barqarorligi pasayib, iqtisodiy risklar kuchayadi.

Hududiy iqtisodiyot nuqtai nazaridan moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi fiskal tizim samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Soliq majburiyatlarini tushunish darajasining yetarli emasligi soliq intizomining sustlashishiga olib keladi, bu esa byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlashni murakkablashtiradi. Ayniqsa Xorazm viloyati sharoitida aholi daromadlarining mavsumiyliги, norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshiradi.

Shu sababli moliyaviy savodxonlikni oshirish va byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarish o'zaro bog'liq jarayon sifatida o'rganilishi ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy savodxonlik iqtisodiy rivojlanish omili sifatida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Lusardi va Mitchell moliyaviy bilimlar inson kapitalining muhim tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy qarorlar sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar jamg'arma qilish,

investitsiya rejalashtirish va risklarni boshqarishda samaraliroq natijalarga erishadi.

Davlat moliyasi va fiskal siyosat samaradorligi masalalari Musgrave hamda Stiglitz tadqiqotlarida keng yoritilgan bo'lib, unda fiskal mexanizmlar iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy tenglikni ta'minlash vositasi sifatida ko'rib chiqilgan. OECD va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi hisobotlarida esa moliyaviy savodxonlikni oshirish iqtisodiy inklyuzivlikni kuchaytiruvchi muhim omil sifatida baholangan.

O'zbekiston olimlari Abdurahmonov, Vahobov va Tursunov tadqiqotlarida inson kapitali, davlat moliyasi hamda hududiy iqtisodiyot rivojlanishining nazariy asoslari tahlil qilingan. Ularning ilmiy ishlari moliyaviy savodxonlikni oshirish iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlash bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlilning zamonaviy usullari qo'llanildi. Jumladan:

- tizimli tahlil usuli — moliyaviy savodxonlik va fiskal tizim o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda;
- statistik tahlil usuli — hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholashda;
- solishtirma tahlil — milliy va xalqaro tajribalarni taqqoslashda;
- induksiya va deduksiya usullari — ilmiy xulosalar shakllantirishda;
- iqtisodiy-mantiqiy tahlil — muammolarni aniqlash va takliflar ishlab chiqishda qo'llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini milliy statistik ma'lumotlar, davlat organlari hisobotlari, ilmiy maqolalar hamda xalqaro tashkilotlar materiallari tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik darajasi va fiskal tizim samaradorligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Moliyaviy bilim darajasi yuqori bo'lgan hududlarda:

- soliq to'lovlari intizomi yuqori bo'ladi;
- rasmiy bandlik darajasi ortadi;
- jamg'arma va investitsiya faolligi kuchayadi;
- kredit risklari kamayadi.

Xorazm viloyati misolida olib borilgan tahlil aholi daromadlarining mavsumiyligi va norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasining nisbatan pastligi iqtisodiy imkoniyatlarning to'liq amalga oshirilmasligiga sabab bo'lmoqda.

Quyidagi diagrammada moliyaviy savodxonlik darajasi oshishi bilan soliq to'lovlari intizomi o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan.



1-diagramma :Moliyaviy savodxonlik va soliq intizomi o'rtasidagi bog'liqlik diagrammasi¹²⁶

Tahlillar asosida quyidagi ustuvor yo'nalishlar aniqlandi:

1. Moliyaviy ta'lim dasturlarini maktab va oliy ta'lim tizimiga keng joriy etish.
2. Aholi uchun amaliy moliyaviy maslahat markazlarini tashkil etish.
3. Raqamli bank xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish.
4. Soliq ma'murchiligini soddalashtirish va tushuntirish ishlarini kuchaytirish.
5. Norasmiy bandlikni qisqartirishga qaratilgan iqtisodiy rag'batlarni kuchaytirish.

Natijada moliyaviy savodxonlikni oshirish nafaqat aholi daromadlarini barqarorlashtirish, balki hududiy byudjet daromadlarini ham kengaytirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy savodxonlikni oshirish va byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarish o'zaro bog'liq jarayonlar bo'lib, ular hududiy iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida, jumladan Xorazm viloyatida, moliyaviy bilimlarni kengaytirish, soliq tizimini soddalashtirish, iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishni rag'batlantirish hamda raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish orqali uy xo'jaliklari daromadlarining barqarorligini oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida davlat byudjeti barqarorligini mustahkamlash va hududiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali nazariyasi. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 480 b.*
2. *Vahobov A. V., Jumaev N. H. Davlat moliyasi. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 520 b.*

¹²⁶ Ochiq manbaalari asosida muallif tomonidan mustaqil tarzda tayyorlangan

3. Tursunov B. O. *Hududiy iqtisodiyot va mintaqaviy rivojlanish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 300 b.*
4. Lusardi A., Mitchell O. S. *The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. Journal of Economic Literature, 2014.*
5. OECD. *Financial Literacy and Financial Education: Principles and Practice. Paris: OECD Publishing, 2018.*
6. International Monetary Fund (IMF). *Fiscal Policy and Inclusive Growth. Washington DC, 2020.*
7. *O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat byudjeti to'g'risidagi hisobot materiallari. Toshkent, turli yillar.*
8. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish strategiyasi materiallari. Toshkent, 2021.*
9. Stiglitz J. E. *Economics of the Public Sector. New York: W.W. Norton & Company, 2015.*
10. Musgrave R., Musgrave P. *Public Finance in Theory and Practice. New York: McGraw-Hill, 1989.*

АҲОЛИНИНГ МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Мейлиев Обир Рахматуллаевич

*Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Иқтисод фанлари доктори, профессор*

Глобаллашув ва рақамли иқтисодиёт шароитида молиявий қарорларнинг мураккаблашуви аҳолидан юқори даражадаги молиявий билим ва кўникмаларни талаб этмоқда. Жаҳон тажрибасида молиявий саводхонлик шахсий фаровонлик, молиявий барқарорлик ва миллий иқтисодиётнинг узоқ муддатли ўсишини таъминловчи муҳим омил сифатида қаралади. Хусусан, Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти томонидан молиявий саводхонлик “шахснинг молиявий қарорлар қабул қилиш жараёнида билим, кўникма ва муносабатлар мажмуаси” сифатида таърифланади. Мамлакатда аҳоли молиявий саводхонлиги даражасининг юқори бўлиши молиявий хизматлар соҳасининг ҳам жадал ривожланишига сабаб бўлади. Молиявий хизматларни оммалаштириш орқали аҳолининг бу борадаги билимларини мустақамлаш ва кичик бизнес субъектларининг бундай хизматларга бўлган талабини ошириш имкони пайдо бўлади.

"Молиявий саводхонлик - бу шахсий молиявий фаровонликка эришиш учун асосли молиявий қарорлар қабул қилиш имконини берувчи хабардорлик, билим, кўникма, қадриятлар (хаётий йўналишлар) ва хулқ-атвор каби элементларнинг мажмуи" дир.